

ONA TILI DARSLARINI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH DARAJALARI VA VAZIFALARI

Ismoilova Gulrux Ulug'bekovna,

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanlararo integratsiyaning ahamiyati, ta'lim sifatini oshirish imkoniyati, mashqlar bajarishda zamonaviy yondashuvlar, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni tanlash usullari, integratsiya darajalari, integratsiyalashgan dars turlari va shakllari, haqida nazariy ma'lumotlar va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ona tili, darslarda integratsiya, integrativ yondashuv, innovatsiya, didaktik talablar, epizodik rollar, til ko'nikmalari, faol ta'lim metodlari.

Аннотация. в статье даны теоретические сведения и практические рекомендации о значении междисциплинарной интеграции на уроках родного языка в начальных классах, возможности повышения качества образования, современных подходах к выполнению упражнений, методах выбора упражнений, направленных на развитие речевой компетенции учащихся, уровнях интеграции, видах и формах интегрированных уроков.

Ключевые слова: интеграция, родной язык, интеграция на уроках, интегративный подход, инновации, дидактические требования, эпизодические роли, языковые навыки, активные методы обучения.

Annotation. The article provides theoretical information and practical recommendations on the importance of interdisciplinary integration in primary school native language classes, the possibility of improving the quality of education, modern approaches to performing exercises, methods of selecting exercises aimed at the development of students' speech competence, integration levels, types and forms of integrated lessons.

Keywords: integration, natively language, integration in classes, integrative approach, innovation, didactic requirements, episodic roles, language skills, active learning techniques.

Kirish. Qator o'quv fanlarida bir xil qism va elementlarga egalik va ularning bir maqsad va vazifada tabiiy birlashish imkoniyati metodikada «integratsiya» terminiga aniqlik kiritishga asos bo'ladi. "Integratsiyalashgan darsni qanday tashkil etish kerak?" maqolasining mualliflari I.Kolovari va L.Sechnikova integratsiyaga metodik holat sifatida shunday ta'rif beradi: «Integratsiyalashgan dars imkoniyatlarini 4-yildan beri o'rganib bu metodika orqasidan katta kelajak borligiga amin bo'ldik. U tufayli o'quvchilar ongida dunyoning har tamonlama va faol tasviri shakllanadi. O'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda faol qo'llay boshlaydilar. Chunki bilimlar o'zining amaliy tasnifini oson topadi. O'qituvchi o'zining fanini boshqa fanlar bilan aloqasini aniqroq tushunib, yangicha nazar bilan qarab tushuntirib beradi [1].

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarda fanlararo integratsiya, xususan, ona tili ta'limida integrativ yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. X.S.Boqiyeva o'z ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq va tafakkurni rivojlantirishda mustaqil ta'lim va faol metodlarning o'rni muhim ekanligini ta'kidlab, integratsiya orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish imkoniyatlarini asoslab beradi.

K.Qosimova va N.Ubaydulayeva tomonidan yaratilgan metodik qo'llanmalarda ona tili darslarini tashkil etishda tizimlilik, izchillik va fanlararo bog'liqlikni ta'minlash zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ishlarda dars jarayonida o'quv materialini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq va ongli o'zlashtirishi ta'minlanishi qayd etiladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarda integratsiyalashgan ta'limning didaktik asoslari, uning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda dars samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish bo'yicha metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligi ham alohida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili darslarida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadni ma'lum qilishdan boshlanadi. Shunga ko'ra til ta'limini tashkil etish, material tanlash, o'rganish jarayonida amal qilinadigan bosh (muhim, asosiy) prinsiplardan biri umumiy va xususiy maqsadlarni belgilab olish pritsipidir. Zero, ta'lim mazmuni va unga doir materiallardan tortib to o'qitish usullari hamda erishiladigan natijalargacha ona tili ta'limining umumiy va xususiy maqsadlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarni o'quv faniga qiziqtirishning asosiy omili nutq o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, savodli so'zlash, savodli yozishni ta'minlovchi ta'lim mazmuni bo'lib, ushbu mazmunga kiruvchi til birliklarini to'g'ri talaffuz qilish, bexato yozish, fikrni tinglovchiga manzur bo'ladigan tarzda bayon qilish darajasida o'zlashtirish maqsadi orqali namoyon bo'ladi.

Tahlillar va natijalar. Ona tilini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarga uni o'rgatish: uning qonun-qoidalari, til hodisalari boyligi, nafosati haqida izchil tushuncha shakllantira borish, og'zaki va yozma nutq savodxonligini singdirish hisoblanadi. Tabiiyki, boshlang'ich sinflarda tilning qonun-qoidalari yuzasidan elementar bilimlar beriladi.

Barcha o'quv fanlari o'ziga xos integratsion imkoniyatga ega, biroq ularning birlashish imkoniyati samaradorligi ko'p sharoitlarga bog'liq. Kuzatishlarimiz natijasida integratsiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi shartlar quyidagilardan iboratligini ko'rsatdi.

1. O'quvchilarining tayyorligi, ularning psixologik hususiyatlari va bilishga bo'lgan qiziqishlariga bog'liqligi. Ba'zida bir fanning o'quvchilar tomonidan muvaffaqiyatli o'rganilishi ularda boshqa fan haqida bilim va ko'nikmalarning borligiga bog'liq. Masalan, tez va savodli ko'chirish tez va to'g'ri o'qishga bog'liq.

3. Biz dunyoning birligini, sanoqsiz ichki aloqalarga egaligini yanada aniqroq tushunayapmiz. Shuning uchun ko'p muammolarga e'tibor qilmasdan bitta muammoni ko'tarish mumkin emas. Bunday holatlarda taqqoslash, qiyoslash talab etiladi. Demak, o'quvchilarning tafakkurlari, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatlari rivojlangan bo'lishi

talab etiladi. Bu ham integratsiyaga asos bo'la oladi

4. Ko'pchilik fanlarning dasturida "chorraxalar", bir-biriga mos keladigan umumiy mavzular, umumiy muammo va masalalar ko'p: ko'p hollarda bitta obyekt turli maqsadlarda o'rganiladi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun integratsiyalashgan dars sharoitida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etishni inobatga oladigan o'qitish texnologiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

5. Har bir sinfdan xotira, o'qish, diqqat turlari bilan ajralib turadigan o'quvchilar guruhi bo'lishi tabiiydir. O'qituvchining tushuntirish tezligi ularning qaysisidir qoniqtiradi, qay biri uchun esa tushunarsiz bo'ladi. Kimgadir darsda qo'llaniladigan jadval tushunarli tuyuladi, boshqalar esa Uzoq tushuntirishdan keyingina qabul qiladilar. Qo'yilgan masalani hal etish uchun o'qituvchi sinf o'quvchilarining barchasini qanoatlantira oladigan uslub, ish turlari va mashqlar tizimini tanlay olishi lozim. Darsning cheklangan vaqti va har bir o'quvchi berilgan topshiriqlarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib turlicha vaqt oraliqida bajarishlarini inobatga olish taqozo qilinadi. Kuzatishlarimiz, o'qituvchilar integratsiyalashgan darsni turlicha tasavvur qilishlarini ko'rsatdi. Muammoga chuqurroq kirib borilsa, ularning har biri o'zicha haqqonliklarini ko'rish mumkin. Integratsiyalashgan darslarning darajalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi va tobora murakkablashib boradi.

Integratsiyaning 1-darajasi. O'quvchilarning o'z ishlarini, og'zaki javoblarini to'g'ri ifodalashda, ularda o'zini nazorat qilish va o'zini baholash ko'nikmalarini o'rgatish uchun integratsiyalashgan dars kurs doirasida o'qituvchilar oldindan nima muhim, nima 2-darajali ekanligini belgilashlari lozim. O'qituvchilarning shunga o'xshash o'zaro harakatlariga asoslangan darslar ham, ularda o'rganilayotgan material o'zaro mos tushmasa ham integratsiyalashgan hisoblanadi. Bunday darslarni Kolojvariva Sechenikova 1-darajaga kiritadi.

Integratsiyaning 2-darajasi. 2-darajaga o'quv fanlarining tushunchali, ma'lumotli sohasini birlashishini nazarda tutadi. Bunday darslar mavzuga qo'shimcha material kiritish, takrorlashga to'g'ri keladigan qandaydir fakt yoki ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolish maqsadida o'tkaziladi.

Integratsiyaning 3-darajasi. Materialni qiyosiy umumlashtirish vazifalari bilan bog'liq holda o'rganish va o'quvchilarni hodisa va ob'yektlarni solishtirish va qarama-qarshi qo'yish ko'nikmalarida ifodalanadi. Bu jarayonda ham oldingi holatlardagidek asosiy shartga rioya qilish zarur: agar darsni bitta o'qituvchi olib borsa, unga ikkinchi fan o'qituvchisi sherik bo'lishi kerak. Bu o'rinda ham o'sha fakt, muammolar tahlil qilinadi. Shuning uchun o'qituvchilarning pedagogik holatlarini moslashtirish va tekshirish uchun o'zaro darsga kirishlar juda foydali hisoblanadi.

Integratsiyaning 4-darajasi o'ta chuqur tasavvur qilinada o'quvchilar o'zlari faktlarni solishtirishni boshlaydilar. Bir xil hodisa va voqealar muhokamasi, ular o'rtasidagi aloqa va qonunlar o'rnatiladi. Hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv

ko'nikmalarni qo'llaydilar. Aynan shu bosqichni integratsiyaning eng oily darajasi deb tan olish to'g'ri. Integratsiyalashgan ta'lim maqsadi bolalarni dunyoni butunligicha ko'rish va unga erkin moslashishni o'rgatish hisoblanadi. Bu bosqichda fikrlash jarayonini nazorati o'quvchining ichki talabi bo'lgan vaqtini belgilash kerak bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida majburiyatlarning taqsimlashini inobatga olgan holda integratsiyalashgan darslar turli shakllarga ega bo'ladi:

1. Bilimlar almashish darsida bolalar guruxlarga bo'linadilar va ulardan har qaysisi boshqa guruxga berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining izlanishlari haqida ma'lumot beradilar. O'quv fanlari mavzulari mos kelganda bunday shakl samarali hisoblanadi.

2. O'zaro tekshirish darslarida gurux va juftliklarda ish olib boriladi. U o'quvchilarning katta tayyorgarligini talab etadi. Faoliyatning barcha turlarida baholashni obyektiv va aniq talablariga kuchli zarurat tug'iladi. O'z sinfdoshlarining bilimlarini tekshira turib har bir o'quvchi javoblarini sifatli baholash uchun qulay va yaxshi tanish tizimga ega bo'lishi talab etiladi.

3. Ijodiy izlanish darsida bolalar qo'yilgan muammoning yechimini mustaqil ishlarida aks ettiradilar. Biroq izlanish metodlari o'qituvchi tamonidan oldingi mashg'ulotlarda puxta o'ylangan va o'quvchilar tamonidan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim. Shundagina bunday dars yuqori samaradorlik va ahamiyat kasb etadi.

4. Gazeta va ilmiy to'plam nashr qilish darslari – bunda alohida o'quvchilarga va o'quvchilar guruxiga ma'lum mavzu bo'yicha ijodiy izlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan vazifa beriladi. Ish natijasi nazarda tutilayotgan to'plam yoki gazeta mazmunini belgilaydi.

5. Kurs bo'yicha nazorat ishlari, ijodiy ishni himoyalash yoki imtixon shaklida o'tkazilishi mumkin. Nafaqat imtixon yoki olimpiada turidagi nazoratlar balki, mavzu bo'yicha suhbat, muammoli hususiyatga ega masalalar yechish, nazorat tanlov yoki auksion turidagi nazoratlar ham qiziqarli bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan shakllarni maktabning yuqori sinflarida keng qo'llash mumkin. Mazkur muammo boshlang'ich maktabda o'z qiyinchiliklariga ega, biroq o'rta maktabga nisbatan uning yechimini yengillashtiradigan omillar ham mavjud. Bir tamondan boshlang'ich maktabda o'quv fanlari ham, boshqa tamondan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga integratsiyalashgan darslarni o'tish oson. Chunki boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni bir o'qituvchi o'qitadi. Ayrim hollarda musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya bundan mustasno bo'lishi mumkin. Boshlang'ich maktabda ona tilini o'qitish metodikasi tarixi turli o'quv faoliyati ma'lum bo'lak va qismlarini birlashish va moslashish jarayoni integratsiya sifatida umuman yangi metodik holat emasligi haqida guvohlik beradi. Ma'lumki, K.D.Ushinskiy tamonidan o'qish va yozish integratsiyasi vositasida yaratilgan savod o'rgatish metodi shunchalik mukammalki, bugungi kunda ham u eng samarali metodlardan hisoblanadi.

6. "Boshlang'ich ta'limda boshqa fanlar ham albatta integratsiyalashtiriladi, biroq boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan kurslar emas, balki integratsiyalashgan

darslar me'yor hisoblanadi" [2].

7. O'quv fanlari integratsiyasini keyinchalik qo'llash uchun boshlang'ich ta'lim amaliyotida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni "yaqin rivojlanish maydoni" sifatida qo'llash, rivojlantirish va tadbiiq etish zarur.

8. Bolalar ta'limning boshlang'ich bosqichidayoq ko'pgina holat, tushuncha, narsalar bilan tanishadilar, biroq ular haqida eng oddiy tasavvurlarga egalar. O'qish davomida ular yangi-yangi bilimlarni egallaydilar mavjudlarini kengaytirib, rivojlantirib boradilar. Integratsiyalashgan darslarning asosiy kiyinchiligi shundaki, har qanday mavzuni uning kirishidan to mustahkamlanishigacha faol rivojlanishni saqlab qolish zarur. O'z navbatida bu darslar o'qituvchiga alohida mavzularni o'rganish vaqtini qisqartirish, turli fanlardan materiallar ko'chirilishini yuq qilish, o'qituvchilar xozirgi paytda o'qitishga ajratadigan maqsadlarga katta e'tibor (turli shakllarda) qaratish imkonini beradi (ijodkorlik imkonini, orfografik aniqlikni, nutq, fikrlashni rivojlantirish).

9. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tishida yuz beradigan charchash va toliqishlarni yengillashtiradi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek o'qishning dastlabki ikki yili mobaynida maktabda integratsiyaga alohida urg'u berish kerak emas, chunki bolaning bilim darajasi ham, grammatik, hisob, texnik ko'nikmalar hali shakllanmagan bo'ladi. Bundan tashqari integratsiyalashgan o'qitishning asosiy va majburiy talablaridan biri-o'quvchilarning mustaqillik o'rnini (roli) kuchaytirishdir, chunki integratsiya o'rganilayotgan material mavzusini kengaytiradi, boshqa fanlar evaziga doirasi kengayadigan holatlarni chuqurroq umumlashtirish va tahlil etish zaruratini tug'diradi. Bunday hajmdagi materialni mustaqil o'rganishga o'quvchilarning qurbi yetadimi?. Agar o'quvchilar o'z vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirsalar va izlanuvchanlik faoliyati usullariga ega bo'lsalar bu turdagi ishlarni eplaydilar. Bu savollar ta'limning bu bosqichida integratsiya muammosi bilan jiddiy band bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisini oldida turishi kerak. O'z navbatida integratsiyalashgan darslarga juda ko'p talablar qo'yiladi. Quyida integratsiyalashgan darsga qo'yiladigan talablarni keltiramiz [3].

1. Tizimni tashkil etuvchi omilni aniqlash ya'ni, turli fanlarga oid ma'lumotni birlashtirishga asos topish (bu - g'oya, hodisa, tushuncha yoki narsa);

2. Dars maqsadi (bu mavzuni o'rganish, vaqtni qisqartirish zarurati, o'quvchilar bilimida oqsoqlikni yuq qilish);

3. Kursni yangi to'zilishini yaratish, ya'ni bilimlarning funksional vazifasini o'zgartirish;

4. Obyektlarni tanlash ya'ni, dars maqsadiga javob beruvchi axborot manbaini topish;

5. Mazmunni qayta ishlash, (tizimning alohida elementlari o'rtasidagi yangi aloqalarni tuzish, eski shakllarni buzish);

6. Kichik o'quvchilarni o'qitishda samarali natijaga erishish uchun o'qituvchi

qachon va qaysi fanlarni integratsiyalash kerak va zarurligini bilishi katta ahamiyatga ega.

Integratsiyalashgan darslarning muhim hususiyati shundaki, bunday dars asosiy hisoblangan qaysidir bitta fan asosiga quriladi. U bilan integratsiyalashadigan boshqa fanlarining aloqalarini, jarayonlarini kengroq o'rganishga, o'rganilayotgan fan mohiyatini hayot bilan bog'liqlikda chuqurroq tushunishga, egallangan bilimlarni amaliyotga qo'llashga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogikada integratsiya qabul qilgan vazifalarning hisobi yo'q, shuning uchun pedagogik integratsiyada ichki vazifalarni ajratish maqsadga muvofiq.

Integratsiya vazifalari - u aniq masala va rolni bajarish usullarini namoyish etishdir. Bu vazifalar quyidagilardir: ta'limiy, tarbiyaviy, metodologik, rivojlantiruvchi, texnologik vazifalar. Ularni har biri o'z ichida bir qator kamroq miqiyosdagi vazifalarni jamlaydi.

1. Ta'limiy vazifalar. Chegaradosh fanlar dasturida o'quv materialini tanlash va yo'naltirishning asosiy vazifalaridan biri fanlararo aloqalarni inobatga olishdir, bu siz ta'lim mazmunini mukammallashtirishning iloji yo'q- materiya harakatining turli shakllari aloqasini aks ettiruvchi, dunyo haqidagi umumiy bilimlar tizimini o'quvchilarda shakllantirish fanlararo aloqalarning asosiy ta'limiy funksiyalaridan biri.

2. Tarbiyaviy vazifalari. Gumanitar fanlarni o'rganishda, ya'ni jamiyatshunoslik, tilshunoslik, tarix, adabiyotshunoslik tushunchalarining o'quvchi shaxsiyatini shakllantirish bilan bog'liqligi aniqlanadi.

Shaxsning axloqiy – estetik g'oyalari, hissiy-hoxish doirasi shakllanishiga imkon yaratuvchi sahiylik, zolimlik, burch, vijdon, jamiyat oldidagi mas'uliyat tushunchalarining rivojlanishiga alohida e'tibor ajratilgan. Ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat bilan bir qatorda fanlar o'rtasidagi aloqalar o'quvchi shaxsini har tamonlama barkamol tarbiyalash uchun muhim bo'lgan rivojlantiruvchi vazifalarni ham bajaradi.

3. Rivojlantiruvchi vazifalar. Rivojlanish differentsiatsiya yo'li bilan amalga oshiriladi. Ularning vazifalarini aniqlashda hatti-harakati va ularning yangi integratsion, ya'ni butunga birlashtirish hisobga olinadi.

Differentsiatsiya yangi xarakterlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bo'lar: oldindan ko'ra olish, tasavvur qilishni ko'paytirish, boyitish, psixik faoliyatni mustahkamlash, integratsion tartiblash.

4. Metodologik vazifalar. Pedagogik integratsiyani metodologik vazifalarining uchta yo'nalishini ajratish mumkin: evristik, dunyoqarashli- aksiologik va asbobli.

- evristik yo'nalish pedagogik integratsiya qobiliyati bilan bog'liq, yangi pedagogik konsepsiyani ishlab chiqish uchun boshlang'ich negiz bo'lib xizmat qiladi;

- dunyoqarashli – aksiologik yo'nalish. Pedagogik integratsiya pedagogik jarayon qatnashchilarining tasavvurlarini boyitishda intellektual, ma'naviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

- metodologik vazifalarning asbobli yo'nalishi pedagogik integratsiyada asbob roli

sifatida bo'lish qobiliyatini namoyon qiladi.

5. Texnologik vazifalari.

- ma'lumot va vaqtni siqish va zichlash; takrorlashni bartaraf etish va bilim, malakani rivojlanishi uyg'unligini belgilash;
- keng ochib berish va bilim, malakani o'zaro bir fandan ikkinchisiga kirishi;
- muntazamligi tushuncha, omil, bilim va ko'nikmalarni, o'zlashtirilayotgan bilimlarni bir qilishni rad etish, integrative hususiyatlarni umumlashtirishni bilish, subordinatsiya va koordinatsiyani o'rnatish.

Integratsiya – faoliyatning yangi tuzilishi, yangi psixik tizimni shakllanish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda shunday ko'rsatkichlar mavjud: yangi bilimlarni tashkil qilish, taxminni olg'a surish, yangi masalalarni qo'yish va hokazo. Integrativ pedagogik iboralardan foydalanib, shuni aytish mumkin: muammoli o'qitish jarayonida haqiqiy integratsiya amalga oshiriladi. Muammoli o'qitish metodida bilimlarni bir-biriga ustma-ust qo'yilmaydi, balki bu asosda insonda psixologik yangi tuzilmalar paydo bo'ladi. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri muammoli o'qitishning getrogen tabiatidir. Muammoli o'qitishda o'quvchi tayyor bir xil ta'riflar to'plami bilan ish ko'rmaydi, qidiruv modeli xilma-xil ma'lumotlarni ichiga olgan, ularni tanlash va sintez qilishga o'quvchida imkoniyat mavjud.

- Y.N.Rakcheyev pedagogikasida ham integratsion jarayonlarning pedagogikada tadqiq qilishning vazifalari ko'rsatib berilgan. Bular quyidagilar:

- Tarixiy jihatdan integratsion jarayonlarni o'rganish;
- Boshqa metodologiya va nazariy muammolar orasida integratsion jarayonlarning o'rni va rolini tahlil qilish;
- Integratsiya va differentsiatsiya jarayonlarining pedagogika fanining rivojlanish omili sifatida mutanosibli;
- Boshqa fanlar o'zaro aloqalarining obyektiv sharoitlarini aniqlanishi;
- Integratsion jarayonlarning tabiati va mexanizmlarini tadqiq etish;
- to'laonli shaxs shakllanishi nazariyasi tamoyili va integratsion jarayonlarning tadqiq etilishi [3].

Ta'lim va tarbiyani u yoki bu darajada maqsad vazifalarini amalga oshirishda u yoki bu sohada pedagogik faoliyatni mazmun va yo'nalishini belgilashda sistemalashtirilgan qarashlar, holatlar va g'oyalarning ko'pligi, pedagogikada integratsiya haqidagi ma'lumotlar ko'pligi, integratsion jarayonlar konsepsiyasi mavjudligi haqida so'z yuritishga imkon beradi.

Pedagogika fanida integratsion jarayonlar haqidagi konseptual g'oyalarning o'tkazilgan tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- zamonaviy pedagogikada ilmiy izlanishlarda aks etayotgan umumiy integrative ko'rinishni (manzarani) to'ldiruvchi integratsion jarayonlar va tizimlar konsepsiyasining yetarlicha katta soni shakllanmoqda. Biroq pedagogic fanda integratsiyaning butun (to'liq)

konsepsiyasi tuzilishi yakunlandi deb hisoblash mumkin emas. Chunki integratsiyaning tushunchalar maydonida atamalarning yetarlicha erkin talqin etilishi mavjud. Pedagogika integratsion jarayonlarning ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanishida yetakchi qonuniyatga aylanish sharoitida ularning keng manbaviy asosga ega ekanligini tasdiqlovchi integratsion jarayonlarning tadqiqotiga boy. Shu vaqtda professional pedagogika sohasida integratsion jarayonlarning qo'shimcha o'rganilishi talab etiladi;

- zamonaviy pedagogika fani boshqa ilmiy bilimlarning favqulotda faol hujumi maydoniga (obyektiga) aylandi. Ilmiy pedagogik bilimlar tarkibida falsafiy, psixologik, psixoterapevtik, ijtimoiy-texnologik, kibernetik, ishlab-chiqaruvchi-texnologik, texnik va boshqalarning o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Masalan: professional ta'limga "ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari"ga hamoxang, shunga javob bera oladigan bilimlarning pedagogik va psixologik texnologiyalarning kerakligi olimlar tomonidan ko'rsatilmoqda.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda ma'lum tamoyillarga amal qilinadi. Bular:

1) pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilgan prinsipi - maqsad, qonun kabi inson harakati yaqinalishi va harakterini belgilashini ta'kidlaydi;

2) maktab va hayotning bog'liqligi prinsipi – ijtimoiy tajribaga ko'nikishga (munosabatga) mo'ljallangan;

3) ta'lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi prinsipi – dunyo manzarasini to'liq aks ettirish imkonini beradi;

4) shaxsning yosh va shaxsiy hususiyatlarini inobatga olgan holda tushunarlilik prinsipi – hususiyatlarni rivojlantirish maqsadida yuqori qiyinchilik darajasidagi o'qitishni mo'ljallaydi;

5) sistemalilik va ketma-ketlik prinsipi rejalashtirishning turli shakllarida namoyon bo'ladi;

6) ijod, mustaqil faoliyat, faollik, bilishlik prinsipi;

7) ta'lim va tarbiya rivojlanish natijalarining harakterliligi, tushunarlilik va mustahkamligi prinsipi;

8) tarbiyaga kompleks yondoshuv prinsipi.

Xulosa. Didaktika pedagogikaning asosiy qismi sifatida mazmun jihatidan bir-biriga bog'liq va bir-biriga sabab bo'lgan asosiy tushuncha kategoriyalardan foydalanadi. Shunday qilib ilmiy bilimning turli sohalarini integratsiyalashtirib mazmun, o'qitish jarayonlarining funksiyasini rivojlantirish va ta'lim tarbiyani amalga oshirishga yo'naltiradi. Tarixiy davrga muvofiq yangi tamoyillarga tayanish ehtiyoji vujudga keladi, ularning kerakligi vaqtning talabi hisoblanadi. 80-yillarda pedagogik fanga hamkorlik prinsipi kirib keldi. U asosiy tamoyillar bilan integratsiyalashadi. Ta'limning kamchilik va yutuqlarga ega bo'lgan o'qitish faoliyatini tashkil etish shaklini izlashni vujudga keltirdi, ularni kompleks va muvofiq qo'llab, eskisining o'rnini to'ldirdi va bu integratsion

texnologiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boqiyeva X.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Samarqand, 2019.
2. Qosimova K., Ubaydulayeva N. Ikkinchi sinfda ona tili darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.

